

TALABALAR MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-RESURS MARKAZI PEDAGOGIK IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHNING METODIK JIHLARI

¹Xodjaniyozov Sardor Umarovich, Urganch davlat universiteti
o'quv ishlari bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori,
dotsent

²Otamurodova Aziza Sultonmurodovna, Urganch davlat
pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИНФОРМАЦИОННО- РЕСУРСНОГО ЦЕНТРА В РАЗВИТИИ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

¹Ходжаниязов Сардор Умарович, проректор по учебной
работе Ургенчского государственного университета, доктор
педагогических наук, доцент

²Атамуродова Азиза Султанмуродовна, независимый
исследователь Ургенчского государственного
педагогического института

METHODOLOGICAL ASPECTS OF USING THE PEDAGOGICAL CAPABILITIES OF THE INFORMATION RESOURCE CENTER IN DEVELOPING THE MEDIA COMPETENCE OF STUDENTS

¹Khodjaniyozov Sardor Umarovich, vice-rector for educational
affairs of Urganch State University, doctor of pedagogy,
associate professor

²Otamurodova Aziza Sultanmurodovna, independent researcher
of Urganch State Pedagogical Institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda oliy ta'lim tizimida media-ta'limning o'rni, talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishda axborot-resurslaridan foydalanish, axborotlarni izlab topish, tahlil qilish, mulohaza yurita olish, axborot-kutubxona bilan ishlash malakasini shakllantirishga qaratilgan metodik ko'rsatmalar pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mediatalim, mediasaxodxonlik, axborot olish, kompetensiya, kommunikativ qobiliyat, intellektual salohiyat, ommaviy madaniyat, mediamatn.

Abstract: This article examines the role of media education in the higher education system today, the use of information resources in the development of students' media competence, the ability to search for



1



2

²<https://orcid.org/0009-0000-1805-7257>

²e-mail:

atamuratova79@mail.ru

information, analyze, reason, the ability to work with information and library instructions are discussed, and are analyzed using the example of research work by scientists and teachers.

Key words: media education, media literacy, information acquisition, competence, communication skills, intellectual potential, mass culture, media text.

Аннотация: В данной статье проанализированы на примере научно-исследовательской работы ученых-педагогов роль медиаобразования в системе высшего образования на сегодняшний день, методические указания, направленные на использование информационных ресурсов в развитии медиакомпетентности студентов, формирование навыков поиска, анализа, рефлексии информации, информационно-библиотечной работы.

Ключевые слова: медиаобразование, медиаготовность, получение информации, компетентность, коммуникативные способности, интеллектуальный потенциал, массовая культура, медиатекст.

KIRISH. Barchamizga ma'lumki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu ilm, fan, ta'lim va tarbiyadir. Vatanimizning yorug' kelajagi, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va yoshlarga berilayotgan tarbiyaga chambarchas bog'liq.

Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Bu borada "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangilanishi hech shubhasiz ta'lim taraqqiyotining yangilanishiga zamin yaratib berdi. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inkluziv shakllari joriy qilindi, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma dasturlar yo'lga qo'yildi. Shuningdek, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik o'qitish shakllari, o'qitish va tarbiya metodlarini erkin tanlash huquqi berildi [1; 142, 175-betlar].

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, oliygohlarni ta'lim va ilm-fanning yirik markazlariga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini qat'iy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga yurtimizda bir qancha professor-olimlar ilmiy izlanishlar olib borib, sohaga oid zamonaviy, jahon standartlariga mos o'quv adabiyotlarni yaratmoqdalar [2; 216, 218-betlar].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oliy ta'lim sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-

o'qituvchilar, balki talabalar ham zamonaviy axborot-texnologiyalari imkoniyatlaridan turli o'rinlarda unumli foydalanishlari bugungi kun dolzarb masalalaridan biridir.

MAVZUNING DOLZARBLIGI. Davlat umummilliy dasturida asosiy vazifalardan biri oliy ta'lim tizimini axborotlashtirishga qaratilgan. Oliyoghlar kompyuter texnikalari va to'liq internet bilan ta'minladi, jahon standartlariga mos elektron kutubxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi, shu bilan bir qatorda, uzluksiz ravishda axborot-kutubxonalari zamonaviy o'quv-adabiyotlari bilan ta'minlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim siyosatining bugungi kundagi oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biri, jamiyat va davlat ehtiyojlarini qondiruvchi muhim va kelajakdagi rivoji uchun zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlashda ta'lim oluvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishga qaratilgan.

Mediata'lim mutaxassislar fikriga ko'ra, Talabani mustaqil fikr yuritishga, ijodiy faoliyatni rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida mediata'lim samaradorligi sifatli amalga oshirilsa yosh avlodning intellektual salohiyati rivojlanishiga xizmat qiladi.

Talabalarda mediakompetentlikning rivojlanishi o'zaro munosabat madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalari yordamida ijodiy, kommunikativ qobiliyatlarining shakllanishi, tanqidiy fikrlash, idrok etish, talqin qilish, mediamatnlarni tahlil qilish va baholash, o'zini o'zi ifoda etishida mediatexnologiyaning turli shakllaridan maqsadli foydalish imkonini beradi.

ASOSIY QISM. ADABIYOTLAR TAHLILI. Mediata'lim hozirgi davrda shaxsni

ommaviy axborot vositalari, axborot bosma manbalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Dunyoda mediata'limning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO tashkiloti tomonidan 2002-yilda o'tkazilgan Deklaratsiyasida ham media-ta'limning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash alohida ta'kidlangan. Mediata'lim sohasida hamkorlikdagi faoliyat deklaratsiyasi ishlab chiqildi, Trening davomida raqamli kutubxonalar yaratish uchun yangi dasturiy ta'minot Greenstone taqdimoti o'tkazildi.

YUNESKO hujjatlarida mediata'lim quyidagicha talqin qilinadi:

- Mediata'lim (media education) media (bosma va grafik tovush ekran va boshqa) va har xil texnologiyalar turlari bilan bog'liq;

- U talabalarga ularning ommaviy axborot vositalarini qay tarzda qo'llanilishini tushunishga, boshqalar bilan aloqa qilganda mediadan foydalanish qobiliyatlarini egallashga imkoniyat beradi.

F.M.Zokirova va S.S.Babadjanovlar ilmiy tadqiqotlarida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida mediakompetentlikni rivojlantirish bosqichlari, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lish masalalari ochib berilgan. Mediata'lim orqali talaba quyidagi bilimlarni oshirishi nazarda tutilgan:

1) Mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish;

2) Mediamatnlarning manbalarini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijorat va madaniy manfaatlarni ham kontekstini aniqlash;

3) Media tomonidan tarqatilayotgan mediamatnlar va qadriyatlarini sharhlash;

4) Mediamatnlarni yaratish, ularni tarqatish hamda ularga qiziqish bildirgan auditoriyaga ega bo'lish maqsadida tegishli medialarni tanlash;

5) Qabul qilish va ishlab chiqarish maqsadida mediaga erkin ravishda kirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Mediata'lim natijasi talabalarining mediakompetentligini, mediasavodxonligini shakllantirishdan iborat. Mediakompetentlik keng qamrovli bo'lib, bilimlarning rivojlanish darajasida o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Bu qotib qolgan kategoriya emas, kompetentlik darajasini inson butun hayoti davomida bilishga oid,

emotsional, estetik va axloqiy, mediaaxborotni idrok qilish, talqin qilish orqali oshirib boradi.

G'arb mediapedagoglari "mediasavodxonlik" tushunchasini quyidagicha izohlaydi: Mediasavodxon talaba:

- ommaviy madaniyat bilan munosabatga kirishganda ongli ravishda tanqidiy va tahliliy yondashadi, manipulyatsiyaga qarshilik qiladi;

- mediamatnlarni sharhlaydi va yaratadi, turli shakldagi axborotlarni olish va uzatish qobiliyatiga ega bo'ladi;

- insonlarga audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyati, mazmunini tushinishga, yaratishga va baholashga yordam beradi;

- har bir inson mediasavodxon bo'la oladi.

Ayrim tadqiqotlarda mediakompetentlik mediasavodxonlikning sinonimi sifatida qaraladi. Ukrainalik pedagog olimi S.M.Stredenkov mediamadaniyati yuqori kishini quyidagicha tasvirlaydi:

1) uning mediabog'lanishlari soni va davomiyligi rejalashtirilgan bo'ladi;

2) o'ziga kerakli axborotni to'g'ri tanlay oladi;

3) axborotga tanqidiy yondashadi, chunki medianing zararli ta'sirlarini biladi, qarshisida ochilgan mediamatnni o'z filtridan o'tkazib, keyin qabul qiladi;

4) mediamahsulotdan foydalanishda axloq me'yorlariga amal qiladi;

5) mediamahsulot yarata oladi [3;10-b].

Pedagogika fanlari doktori A.V.Fedorovning ilmiy tadqiqotlarida mediata'lim nafaqat badiiy va pedagogika ta'limi, qolaversa bir qancha fanlar bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan, jumladan san'atshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya va boshqa bir qator fanlar bilan ham bog'liqligi aniq dalillar bilan ochib berilgan. Mediata'lim mediamadaniyatni o'rganishga asoslanadi. Muallif o'z navbatida V.S.Biblarning "Madaniyat – o'tmish, hozirgi va kelajak - turli madaniyatlarga mansub odamlar o'rtasidagi bir vaqtning o'zida mavjud bo'lish va muloqot qilish shakli, hayotimiz, ongimiz, tafakkurimizning o'z-o'zini belgilash shakli..." fikrlarini keltirib o'tgan.

Zamonaviy sharoitda mediata'limning o'rni va roli quyidagicha talqin qilingan:

- mediata'limning ta'rifi: ijtimoiy-madaniy vaziyat uchun zamonaviy mediata'lim ahamiyatini asoslash;

- mediata'limning asosiy yo'nalishlari: turli fanlar va amaliyotlar ommaviy aloqa bilan mediata'lim o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash;

- M.M.Baxtin, V.S.Biblera. "Madaniyatlar muloqoti" nazariyasi asoslari: Mediata'lim uchun M.M.Baxti, V.S.Bibleraning "madaniyatlar muloqoti" nazariyasi ahamiyatini asoslash;

- ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish xususiyatlari va mediata'lim sharoitlarida globallasuv: ijobiy va salbiy jarayonlar tendentsiyalari o'rtasidagi farqning mediata'lim va ommaviy axborot vositalariga nisbatan globallasuvi.

A.V.Fedorovning ilmiy izlanishlarida "media" atamasiga quyidagicha ta'rif beradi.

Mediata'lim – tanqidiy ma'noni anglatib, fikrlash (tanqidiy fikrlash), rivojlanishning muhim elementi hisoblanadi. Bu talabalar tomonidan o'zlarining mediamahsulotlarini yaratishdir, demokratik jarayon va globallasuv jarayonida barcha turdagi ommaviy axborot vositalarini o'rganishga asoslangan bo'lishi kerak. Har ikkida ham faol ishtirok etish uchun mediama'rifat zarur. Mediata'lim ham, mediatadqiqotlari ham mediasavodxonlik maqsadlariga erishishga qaratilgan.

Mediasavodxonlik – talabalarga ommaviy axborot vositalarining hayotdagi ahamiyatini tushunib olishda va tanqidiy nuqtayi nazardan ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilishda yordam beradi. Mediasavodli talaba ommaviy axborot vositalari matnlarini tanqidiy va ongli ravishda baholay olishi va tanqidiy fikrni bayon qila bilishi kerak [4;9,27-c].

Bu borada pedagogika fanlari doktori, professor I.S.Pilkoning ilmiy tadqiqotlarida "mediata'lim" va "mediasavodxonlik" tushunchalariga alohida e'tibor qaratilganligini kuzatishimiz mumkin.

Uzoq vaqt davomida "mediata'lim" tushunchasi va uning natijalari asosan ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari sohasida mutaxassislar tayyorlash yoki ommaviy axborot

vositalaridan foydalanish bilan bog'liq ma'lumotlardan iborat bo'lgan.

Mediata'lim – ommaviy axborot vositalari yordamida mediamaterialga asoslangan shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni; ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilish madaniyatini rivojlantirish; ijodiy, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish; tanqidiy fikrlashni, mediamatni talqin qilish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish; mediatexnologiyasidan foydalangan holda o'zini namoyon qilishning turli shakllarini o'rgatishga qaratilgan.

Mediata'lim o'z-o'zini tarbiyalash va kasbiy masalarda o'zlashtirish, mediamatnlarni yaratish bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash, ularning mazmunini talqin qilish va baholashning rivojlangan tahliliy qobiliyatlari, mediasavodxonligi shaxsni axborot kompetensiyasining muhim tarkibiy qismidir.

Mediasavodxonlik nafaqat pedagoglar, balki kutubxona sohasida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini I.S.Pilko o'zining ilmiy tadqiqotida batafsil yoritib bergan. Axborot-kutubxona sohasida mediakompetentlik mediaxabarlari va mediamatnlarini tahlil qilish, moslashtirish, so'rash, qidirish, umumlashtirish, qayta ishlash, muhokama qilish, tushunish, tekshirish, sintez qilish, tizimlashtirish, aniqlashtirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'quv jarayonida mediata'lim resurslari va texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha tavsiflab bergan:

1) **Mediamateriallar bo'yicha trening.**

Bosma va elektron ommaviy axborot vositalaridagi o'quv, ilmiy-kasbiy, huquqiy va umumiy madaniy nashrlar axborotning muhim manbai hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'rganish obyekti – ommaviy ma'lumotlar bazalari, elektron kutubxonalar, elektron nashrlar, bloglar, veb-saytlar va turli portallar hisoblanadi. Ular talabalar tomonidan auditoriya va mustaqil ta'lim olishlarida faol foydalaniladi.

2) **Media orqali o'rganish.**

Audiovizual, multimedia, telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish endi bugungi kunda innovatsiya emas, balki kutubxona-axborot soha mutaxassislari ish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari ta'lim resurslari va texnologiyalaridan foydalanmasdan turib, amaliy va laboratoriya ishlarini olib borish,

o'quv loyihalarini ishlab chiqish va himoya qilish, kurs va diplom tadqiqotlari natijalarini tasavvur qilish qiyin. Internetda va elektron kutubxonada joylashtirilgan elektron o'quv resurslari, ilmiy va uslubiy nashrlar dolzarb professional ma'lumotlarning yetishmasligini to'ldirishga va o'rganilayotgan mavzu kontekstida muhim manbalarga kirish uchun vaqtinchalik, fazoviy (va ba'zan sarf-xarajat) to'siqlarini yengib o'tishga imkon beradi.

3) **Mediamahsulotlarini yaratish.**

Talabalar va ilmiy izlanuvchilar ma'ruza kurslarida va amaliy mashg'ulotlarda, o'quv loyihalarini, kurs va diplom ishlarini bajarishda turli maqsadlar uchun media-mahsulotlar yaratish texnologiyalarini o'zlashtiradilar. Ular ilmiy va o'quv faoliyatida "Multimedia texnologiyalari", "Kutubxona xizmatlari", "Matn tahlili", "Axborot-tahliliy texnologiyalar", "Axborot-tahliliy mahsulotlar va xizmatlar" kabi mediaxizmatlaridan foydalanadilar. Ushbu yuqorida keltirilgan ma'lumotlar nafaqat ilmiy izlanuvchi va talabalar uchun, balki kutubxona xodimlari uchun ham muhim kompetensiya hisoblanadi. Kutubxonaga murojaat qiluvchiga to'liq va to'g'ri mediaxizmat ko'rsatish kutubxonachining asosiy kasbiy faoliyati hisoblanadi.

4) **Mediata'limi muammolarini ilmiy tushunish.**

Zamonaviy jamiyat media maydoni madaniy o'zgarishlar omili sifatida talaba-yoshlar media madaniyati quyidagicha: o'quv resurslari va texnologiyalarini o'rganishning ijtimoiy-gumanitar jihatlari, kutubxona axborot amaliyotidan foydalanish, axborot savodxonligi va shaxsning axborot madaniyati shakllangan bo'lishi kerak. Mediata'limning ilmiy va amaliy jihatlariga doimiy e'tibor, shubhasiz didaktik jihatdan samara beradi. Universitet va axborot-kutubxona faoliyatida didaktik jihatdan tashkil qilingan ma'naviy-marifiy va badiiy tadbirlar, badiiy-ijodiy kechalar, kitobxonlik tadbirlari talabalarning mediakompetentligi rivojlanishiga yordam beradi [5;c.3-7].

Global axborotlashtirish davrida kadrlarning, jumladan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan talablar kun sayin yangilanib bormoqda. Pedagogning axborotsavodxonligi, mediakompetentligi uning kasbiy kompetentligining ajralmas tarkibiy qismi

bo'lib, kelajakda axborotlashgan jamiyatda o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi. Yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir bo'lajak o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni pedagogik faoliyatda izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Pedagogika fanlari doktori Vladimir Aleksandrovich Adolfnig ilmiy tadqiqot ishlariga nazar soladigan bo'lsak, "O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari" mavzusidagi dissertatsiyasi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi hodisasi mohiyatini aniqlashga qaratilganligiga guvoh bo'lamiz. Tadqiqotda kasbiy kompetensiya hodisasi:

- funksional-faol yondashuv, uning doirasida kasbiy funksiyalarning parametrlari pedagogikaning funksional tuzilishi bilan belgilanishi;

- kasbiy kompetensiyaga shaxsiy-faol yondashuv, o'qituvchining ishi va shaxsiyatini ajralmas birlikda hisobga olishni ta'minlash;

- akseologik yondashuvga imkon beruvchi kasbiy kompetensiyani ta'lim qiymati sifatida ko'rib chiqish va hokazolar bilan belgilanishi ilmiy asoslab berilgan.

Muallifning fikriga ko'ra bilim, malaka o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining asosiy va tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ular innovatsion muhitni modellashtirishga qaratilgan muammoli kasbiy vaziyatlarni hal qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kasbiy vazifalarga nisbatan harakat usulining yo'naltirilgan darajasi quyidagi vazifalarga asoslanadi:

- kasbiy va texnologik mazmun – bu o'qituvchining kasbiy rivojlanishini boshqarishning funksional tizimi;

- maqsadlarni tanlashda kasbiy yo'nalishni shakllantirishni ta'minlash, o'qitish turini, shuningdek, o'quv faoliyati turini aniqlash, o'quv qo'llanmalardan foydalanish, talabalarni xatti-harakatlarini modellashtirish va o'qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatli tizimlarini rivojlantirish kabilar.

Oliy ta'limda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi haqida so'z borganda avval "mahorat" va "pedagogik mahorat" tushunchalarining mohiyatini chuqur anglash

maqsadga muvofiqdir. Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli ham bo'lajak o'qituvchi pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallashi lozim.

Ta'lim jarayonining ishtirokchisi sifatida pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

XULOSA. Xulosa o'rnida mavzuning bugungi kundagi dolzarbligiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, Respublika ijtimoiy hayotiga keng ko'lamli va shiddat bilan kirib kelayotgan axborotlar oqimi, axborotlarni tezkor qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda yetkazib berish mahorati ta'lim tizimida talabalarning mediakompetentligining rivojlanganligi bilan bog'liq. Albatta bu mediata'lim tizimining samarali yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liqdir. Mediata'lim ta'lim tizimida darslarni o'tkazish metodologiyasini ta'minlaydi. Har bir dars davomida darsning maqsadini ochib beruvchi, o'quvchilarning individualligini rivojlantiruvchi muammoga asoslangan, evristik, o'yin va boshqa samarali ta'lim shakllarini yarata olish, uning qobiliyatlarini rag'batlantirish orqali ijodiy

faoliyatda bevosita ishtirok etish, mustaqil fikrlash, media matn tuzilishini talqin qilish va tahlil qilish, mediamadaniyat haqidagi bilimlarni egallash, mediasavodxonlik madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-tom. T.: O'zbekiston, 2020, 142, 175-betlar.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-tom. T. O'zbekiston, 2023, 216, 218-betlar.
3. F.M.Zakirova, S.S.Babadjanov. Bo'lajak o'qituvchining mediakompetentligini rivojlantirish (monografiya). T.: Aloqachi, 2020, 10-b.
4. А.В.Федоров. Медиаобразование и медиаграмотность. Учебное пособие. Таганрог: Кучма, 2004, 9, 27-с.
5. И.С.Пилко. Медиаобразовательные ресурсы и технологии в подготовке специалистов библиотечно-информационной сферы. Журнал: Библиосфера, 2010, №3, с. 3-7.
6. N.A.Muslimov va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchisining axborot olish kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo'llanma. T. – 2014. 60 b.

